

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шухрат Эргашев

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ

ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ 30-35

Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ

МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utkirovna

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich

КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -

BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna

МЕВА-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING

SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich

О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИНИНГ РИВОЈЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ

БОШҚАРИШ SAMARADORLIGINI OSHIRISH 78-87

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ 88-101

Каржавова Хуршида Абдумаликовна

МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ
АСОСИЙ ЁЎНАЛИШЛАРИ 102-110

Soliyev Dilmurod Jamolovich

AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING
ASOSIDIR 111-119

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
MASALALARI 120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Тўраев Шавкат Нишонович

ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ 131-137

Qodirov Davronbek Hoshimovich

TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY 138-143

Sharipov Dilshod Vaxshilloevich

TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI 144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич

ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ 149-155

Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna

APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND
AND VISUALLY IMPAIRED 156-161

Ахмедшина Лилия Рафаэльевна

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 162-166

Kholmuminova Makhliyo

DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 167-171

Shirinova Yekaterina

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI 172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Қутлымуратов Фархад Қалбаевич

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 179-185

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY
XUSUSIYATLARI 186-196

Урманбаева Ферузахон Саттаровна

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ 197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR
TAHLILI) 204-210

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA
TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI 211-217

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA
TARBIYALASH 218-223

Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ
ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ 224-229

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH 230-236

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE
EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES 237-244

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH 245-254

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA
PEDAGOGIK ASOSLARI 255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabjanovna</i> THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i> YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i> К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich</i> KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	290-296
<i>Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна</i> КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	297-301

12.00.00 – Юридик фанлар

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich
IIV Akademiyasi doktoranturasi
mustaqil izlanuvchisi

QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya. Maqolada qasddan odam o'ldirish jinoyatining tushunchasi, ushbu turdagi jinoyatlarning tavsifi va jinoiy huquqiy xususiyatlari, qasddan odam o'ldirish jinoyatining ob'ekti, sub'ekti, ob'ektiv tomoni va sub'ektiv tomoni, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyatining ko'rinishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qasddan odam o'ldirish, aybni og'irlashtiruvchi holatlar, jabrlanuvchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, sub'ekt, ob'ekt, ob'ektiv tomon, sub'ektiv tomon.

Касимов Нодиржон Содикжонович,
независимый исследователь
докторантуры МВД Академии

ОПРЕДЕЛЕНИЕ, ХАРАКТЕРИСТИКА И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА.

Аннотация. В статье анализируются состав преступления умышленного убийства, описательные и уголовно-правовые особенности данного вида преступления, объект, субъект, объективная сторона и субъективная сторона преступления умышленного убийства.


Ключевые слова: Умышленное убийство, обстоятельства смягчающие вину, потерпевший, субъект, объект, объективная сторона, субъективная сторона, Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich
Deputy Director for Academic Hours of the Tashkent Academic
Lyceum No. 2 of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of
Uzbekistan, independent researcher of the doctoral program
of the Ministry of Internal Affairs of the Academy

DEFINITION, CHARACTERISTICS AND CRIMINAL-LEGAL SIGNS OF THE CRIME OF PREMEDITATED MURDER.

Abstract. The article analyzes the concept of the crime of premeditated murder, the characteristics and criminal-legal signs of this type of crime, the manifestations of the crime of premeditated murder under aggravating circumstances

Keywords: Intentional murder, mitigating circumstances, victim, subject, object, objective side, subjective side, Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

 <https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N25>

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri inson haqida g'amxo'rlik qilishdir. Binobarin O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson omili, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida har qanday holatdan qat'iy nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilingan. Chunonchi, Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib shiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" – deb qayd etilgan bo'lsa, uning 19-moddasida "Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki cheklab qo'yishga hech kim haqli emas" deyiladi.

Konstitutsiyaning "Shaxsiy huquq va erkinliklar", "Siyosiy huquqlar", "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlangan bo'limlarida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o'z aksini torgan. "Davlat, – deb ta'kidlanadi Konstitutsiyaning 43-moddasida – fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va va erkinliklarini ta'minlaydi". "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlanadi".[1;16-17-b]

"Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"[2]ning 3,4,5-moddasida, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ning 6, 7, 9, 10,11-moddalarida[3] insonning yashash huquqi, qadr-qimmati, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Jinoyat kodeksida hayotga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'lig'i bebaho ne'mat hisoblanadi va uning bu ne'matlardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati haqidagi ishlar bo'yicha jinoyat qonunining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash juda muhim, chunki ushbu jinoyatni aybni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun qonunda favqulodda jazo chorasi umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan.

Qasddan odam o'ldirish deganda, huquqqa xilof ravishda, qasddan boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish tushuniladi. Odam o'ldirish jinoyatining jinoiy-huquqiy xususiyatini baholashda "huquqqa xiloflik" zaruriy belgi hisoblanadi. Mazkur belgi huquq doirasida sodir etilgan odam o'ldirishni qasddan odam o'ldirishdan farqlashga imkon beradi.[4;45-46-b]

Shaxsni qasddan odam o'ldirganlikda ayblash uchun, odam o'limi kelib chiqqanligining o'zi etarli hisoblanmaydi. Uning uchun albatta shaxs hayotini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlarning buzilganligini aniqlash kerak. Shu nuqtai nazardan qasddan odam o'ldirish

jinoyatining bevosita obyektini boshqa shaxs hayotini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat xususiyatidan kelib chiqqan holda agarda aybdor aniq shaxsning hayotidan mahrum qilishni xohlab, biroq xatolikka yo'l qo'yib, uning o'rniga boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilganlik holati qasddan odam o'ldirish jinoyat tarkibini keltirib chiqaradi, chunki Jinoyat kodeksining hayotga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi normalari shaxs kim bo'lishidan qat'i nazar, uning hayotini jinoiy tajovuzlardan himoya qiladi.

Qasddan odam o'ldirishning obyekti – boshqa odamning hayoti xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy munosabatlardir [5;21-b]. Hayotdan ixtiyoriy ketish(suiqasd) yoxud o'z hayotiga suiqasd qilish odam o'ldirish jinoyatining tarkibini tashkil etmaydi. Ayrim sabablarga ko'ra inson o'zining hayotiga chek qo'yishga qaror qilganida uning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra o'lim ro'y bermasligi mumkin (o'zini osgan vaqtda arqonning uzilib ketishi, zaharning ta'sir qilmasligi, begona shaxsning qutqarib qolishi va h.k.). O'lim yuz bermaganiga qaramay o'z joniga qasd qilganlik jamoatchilik tomonidan qoralanadi. Chunki bunday hodisa inson axloqiga yotdir va u shaxsning ojizligi, irodasi bo'shligidan dalolat beradi, lekin jinoyat hisoblanmaydi.

Odam o'ldirishning obyekti nafaqat odamning hayotiy biologik jarayoni, balki odam uchun eng qimmatli bo'lgan ne'mat bilan bemalol foydalanishi, hayoti bilan ifodalanadigan ijtimoiy munosabat ham bo'ladi.

Odam o'ldirishning bevosita obyekti boshqa kishining hayoti hisoblanadi. Yoshidan, sog'lig'i yoki yashash tarzidan qat'i nazar har qanday kishining hayoti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadi. Shu sababli chaqaloq, keksa, sog'lom yoki umidsiz, og'ir kasal odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakat odam o'ldirish deb hisoblanadi.

Shunday qilib, odam o'ldirishning obyekti deb, boshqa kishining hayoti, ya'ni tanasining biror qismi to'lg'oq jarayonida ona qornidan tashqarida paydo bo'lgan vaqtdan to biologik o'limining kelib chiqishigacha bo'lgan jarayondir.

Obyektiv tomondan odam o'ldirish qonunga xilof ravishda boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi. Agar boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish qonunga xilof bo'lmasa, u odam o'ldirish deb hisoblanishi mumkin emas (masalan, zaruriy mudofaa holatida, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida (JK 39-moddasi) boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish va h.k.).

O'ldirish faol harakat bilan, shuningdek, harakatsizlik bilan ham sodir etilishi mumkin. Odam o'ldirish faol harakat orqali sodir etiladi, ya'ni bunda aybdor jabrlanuvchiga o'z xususiyatiga ko'ra shaxsni o'ldirishi mumkin bo'lgan muayyan tan jarohatini yetkazishdek jismoniy ta'sir ko'rsatadi. Bu jinoyat ayrim hollarda jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir qilish (sud-tergov amaliyotida o'limning qo'rquvdan, qo'rqitish tufayli ro'y berganlik holatlari ham ma'lum) yo'li bilan ham sodir qilinishi mumkin.

Odam o'ldirish harakatsizlik natijasida ham sodir etilishi mumkin. Bunday holda shaxs o'z vazifasini yoki bajarish imkoni bo'lgan harakatni amalga oshirmaydi. Lekin unda o'lim yuz bermasligi (masalan, vrach tomonidan zarur dori-darmonlarni bemorga bermaslik, onaning tug'ilgan chaqaloqqa qaramasligi va hokazo) ham mumkin.

Odamning joniga qasd qilgan aybdor shaxsning adashishi, ya'ni nazarda tutilganidan boshqa kishining hayotiga huquqqa xilof ravishda qasd qilsa, ya'ni jabrlanuvchining shaxsiga nisbatan adashsa, bu hol jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi va aybdorning qilmishi

odam o'ldirish deb kvalifikasiya qilinishi lozim.

Odam o'ldirish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, uni tugallangan deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim. Bunday oqibatning ro'y bermaganligi odam o'ldirishni tugallanmagan, odam o'ldirishga tayyorgarlik yoki unga suiqasd deb, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 25-moddasining tegishli qismi orqali aybdorni javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Aybdor o'zi sodir etgan qilmishi natijasida qanday oqibat ro'y berishini bilib harakat qilsa-yu, ammo uning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra jabrlanuvchi tirik qolsa, uning harakati odam o'ldirishga suiqasd deb topiladi. Bunday suiqasd nazariya va amaliyotda yaroqsiz qurol bilan tajovuz deb, ikki turga ajratiladi: yaroqsiz qurol bilan suiqasd va yaroqsiz ob'yektga suiqasd. Ikkinchi turga misol qilib, murdani tirik odamga adashtirib uni o'ldirish maqsadida o'q otishni keltirish mumkin. Bu holatda aybdor shaxsning tirik ekanligiga nisbatan adashmoqda. Bu qilmish o'ta xavfli ijtimoiy qilmish bo'lib, jinoiy javobgarlikka tortilishi zarurligini anglatadi.

Odam o'ldirishga suiqasd haqidagi ishlarni ko'rib chiqishda jinoiy harakat natijasida o'lim yuz bermaganligi sabablarini aniqlash zarur. Negaki jinoiy harakat sodir etuvchi jinoyatni vaqtincha yoki majburan emas, balki o'z xohishi bilan to'xtatishi mumkin. Bunda uning o'z xohishi bilan jinoyat to'xtatilgan bo'lishi zarur.

Shaxsni odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortishda jinoyatning tugallanganligi, jinoiy qilmish bilan o'lim o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligini aniqlash zarurdir. Jabrlanuvchining o'limi aybdor tomonidan sodir etilgan qilmish bilan bog'liq bo'lishi shart, ya'ni o'lim sodir etilgan qilmishning natijasi bo'lishi kerak.

Jabrlanuvchini uning iltimosiga ko'ra o'ldirgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Duelda odam o'ldirish bugungi kunda uchramaydi, lekin shunday hodisa ro'y bersa, aybdor qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortiladi.

Sub'yektiv tomondan odam o'ldirish qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilishi, aybning shakllari turlicha bo'lishi mumkin, ammo ayb mavjud bo'lishi lozim. Ushbu qilmish egri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin[6; 192-b]. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 5-bandida: "Aybdorning qasdi to'g'risidagi masalani hal qilishda sudlar sodir etilgan jinoyat holatlarining barcha tomonlari yig'indisini inobatga olishlari va jumladan, jinoyatni sodir etish usuli va qurolini, jarohatlarning sonini, xarakterini, joylashishini va boshqa yetkazilgan shikastlarni, jinoiy harakatning to'xtash sabablarini va hokazo, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining voqeagacha bo'lgan fe'l-atvorini, ularning o'zaro munosabatini, aybdor jinoyat sodir etilganidan keyingi harakatlarining xarakterini e'tiborga olishlari lozim" [6; 192-b] ligi ko'rsatilgan. Yuqorida sanab o'tilgan holatlarning aniqlanishi aybdorning qasdi bilan o'lim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Agar aybdor va jabrlanuvchi do'stona munosabatda bo'lgan bo'lsa, bir-birini tushunsa, ammo ma'lum bir holatda, masalan, qiz bolani rashk qilish tufayli ulardan biri ikkinchisiga pichoq bilan jarohat yetkazsa-yu, shu vaqtning o'zida esini yig'ib olib, jabrlanuvchiga tez yordam ko'rsatgan, "Tez yordam"ni chaqirgan, uni qutqarish uchun qon topshirgan va hokazo bo'lsa-da, jabrlanuvchi yetkazilgan jarohatlar tufayli o'lgan bo'lsa, barcha holatlarni e'tiborga olgan holda aybdorning qilmishi JK 97-moddasida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirish, deb emas, balki JK 104-moddasi 3-qismi bilan, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish deb kvalifikasiya qilinadi.

Qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin, chunki bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va o'limini istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra (jabrdiydaning faol qarshiligi, boshqa shaxslarning aralashuvi, jabrlanuvchiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilganligi va h.k.tufayli) yuz bermaydi [6; 192-b].

Ushbu jinoyatning sodir etilishida sub'yektiv tomondan motiv va maqsadning ahamiyati kattadir. Motiv va maqsad qilmishning kvalifikasiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida ta'kidlangan qarorida: "Sodir etilgan harakatni to'g'ri baholash va jazo tayinlash uchun odam o'ldirishning sabablari, maqsadi va usuli muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarga olib, sudyalarda barcha hollarda, bu holatlarni aniqlashlari zarurdir. Shuning bilan birgalikda hukmda sudlar tomonidan qilingan xulosalarni asoslovchi aniq dalillar keltirilishi kerak" [6; 192-b] deb tushuntirish berilgan.

Odam o'ldirish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda aybdorning ruhiy holati ham inobatga olinishi lozim. Bunday shart aybdorning kuchli ruhiy hayajon holatida (JK 98-moddasi) sodir etgan qilmishini kvalifikasiya qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning syb'yekti 13 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir, 97-moddaning 1-qismida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish (JK 98-moddasi)ning sub'yekti 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Odam o'ldirish bo'yicha jinoyat ishlari ko'rilganida aybdor shaxsini, uning shaxsiga oid xususiyatlarini va jabrlanuvchining xulq-atvorini chuqur o'rganish zarurdir. Bu hol jazo tayinlash uchun emas, balki jinoyatning sodir etilish shart-sharoitlari va motivini aniqlash va demakki, jinoyatni to'g'ri kvalifikasiya qilishda ham ahamiyatga egadir.

Jinoyatni sodir etishda bir necha kishi ishtirok etgan bo'lsa, birgalikda odam o'ldirishga qaratilgan yagona qasd bilan harakat qilgan va jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish jarayonida bevosita ishtirok etgan shaxsgina jinoyatning ishtirokchisi deb topilishi lozim. Agar o'lim bir kishining harakati natijasida ro'y bergan bo'lsa, ishtirokchilik belgilari bo'lmagan hollarda qolgan kishilar odam o'ldirganlik uchun javobgar bo'lmaydilar. Bir necha shaxs javobgarlikka tortilgan qasddan odam o'ldirish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda sud har bir sudlanuvchining jinoyatda ishtiroki xarakteri va darajasini tekshirishi lozim. Shuning bilan birgalikda odam o'ldirish maqsadi bilan harakat qilgan va jabrlanuvchini hayotidan mahrum etishda bevosita qatnashgan shaxs jinoyatning bajaruvchisi deb topilishi kerak. Ishtirokchilar tomonidan birgalikda jinoyat sodir etilganda sud xavfli retsivist, alohida xavfli retsivist yoki ilgari qasddan odam o'ldirgan shaxs tomonidan odam o'ldirishni ko'rsatuvchi alomatlar faqat shunday holatlarga tegishli bo'lgan jinoyat ishtirokchilarining harakatlarini tavsiflashda e'tiborga olinishi lozim.

Qonunining bir necha normalarida odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ammo odam o'ldirishdan odam o'ldirishning ham farqi bor, g'araz niyat tufayli, o'ta shafqatsizlik bilan, homilador ayolni o'ldirish, shuningdek, zaruriy mudofaa, xavfli jinoyatchini ushlab, oxirgi zarurat va hokazo holatlarda odamning hayotiga chek qo'yilishi mumkin. Yuqoridagi turli holatlarni e'tiborga olib, qonun chiqaruvchi tomonidan odam o'ldirganlik uchun turli jinoyat-huquqiy moddalarda javobgarlik belgilangan.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatining ob'yektiv tomoni boshqa shaxsni hayotidan huquqqa xilof ravishda mahrum qilishda ifodalanadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati moddiy tarkiblidir. Shu sababli mazkur jinoyatni tugallangan deb e'tirof etish uchun boshqa shaxs hayotidan mahrum etilishi tariqasidagi oqibat kelib shiqishi talab etiladi. Agar ijtimoiy xavfli qilmish natijasida shaxsga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra odam o'limi ro'y bermasa, qilmish qasddan odam o'ldirish jinoyatiga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinadi. Qasddan odam o'ldirish jinoyati ob'yektiv tomonining zaruriy belgisi qilmish va jinoiy oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi hisoblanadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatining sub'yektiv tomoni aybning qasd shaklida sodir etiladi va u ham to'g'ri, ham egri qasdda ifodalanishi mumkin. Sub'yektiv tomondan odam o'ldirish qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilishi, aybning shakllari turlicha bo'lishi mumkin, ammo ayb mavjud bo'lishi lozim. Ushbu qilmish egri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish istagida harakat qiladi, qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi etadi, o'lim yuz berishini xohlaydi (to'g'ri qasd) yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi (egri qasd). Jinoyatga to'g'ri huquqiy baho berishda to'g'ri va egri qasdni bir-biridan farqlash muhim amaliy ahamiyatga egadir, chunki qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. To'g'ri qasdda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va uning o'limini istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra yuz bermaydi[6; 192-b].

Aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etishda qilmishning barcha holatlari majmuidan kelib chiqilishi, xususan, jinoyat sodir etish usuli va quroli, badanga yetkazilgan jarohatlar soni, xususiyati va o'rni, jinoiy harakatlar to'xtashi sabablari, shuningdek aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdorning qasdi egri qasd hisoblanishida u jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish qasdi bilan harakat qiladi, qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi, biroq, bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Ongli ravishda yo'l qo'yish – aybdor o'zining qilmishi natijasida jabrlanuvchining o'limi kelib chiqishi mumkinligini qabul qilishga tayyor ekanligini anglatadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatining sub'yekti uning (JK 97-m.) birinchi qismi uchun 14 yosh, ikkinchi qismi uchun esa 13 yosh etib belgilangan.

Agar qilmishda Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatib o'tilgan kvalifikatsiya belgilari, shuningdek Jinoyat kodeksining 98-101-moddalarida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmasa, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasining birinchi qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi[6; 192-193-b].

Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismida qasddan odam o'ldirish jinoyatining 17 ta mustaqil tarkibli og'irlashtiruvchi holatlari nazarda tutilgan a) ikki yoki undan ortiq shaxsni; b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni; v) aybdorga ayon bo'lgan ojiz ahvoldagi shaxsni; g) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini; d) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda; e) ommaviy tartibsizliklar jarayonida; j) o'ta shafqatsizlik bilan; z) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda; i) tamagirlik niyatida; k) milliy yoki irqiy adovat zamirida; l) bezorilik oqibatida; m) diniy taassublar zamirida; n) kishi a'zolarini

kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida; o) boshqa bir jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida; r) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda; r) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan; s) o'ta xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o'ldirilishi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish. Aybdor tomonidan sodir etilgan qilmishni shu aybga loyiq deb topish uchun ikki yoki undan ortiq shaxslar bir vaqtning o'zida hayotdan mahrum qilingan va mazkur qilmish aybdorning yagona qasdi doirasiga kirgan bo'lishi lozim. Ikki yoki undan ortiq shaxsning o'ldirilishi odatdagidek, bir xil qasd bilan ularni hayotdan mahrum etishning sababidan guvohlik beradi. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish, agar aybdorning harakatlari yagona qasd bilan qamrab olingan va odatda bir vaqtning o'zida sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "a" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga nisbatan qasd mavjud bo'lganda jabrlanuvchilardan faqat bittasi o'lib, boshqalari aybdorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra o'lmay qolgan bo'lsa, qilmishni Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "a" bandi bilan ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish tariqasida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Bunday hollarda, aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksi 25, 97-moddasi ikkinchi qismining "a" bandi va 97-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak[6; 193-194-b].

Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni bila turib, uni qasddan o'ldirish, aybdorga bu haqda aniq ma'lum bo'lgan va jabrlanuvchining homiladorligi haqida oldindan xabar torgan hollarda mazkur qilmish yuz beradi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jabrlanuvchining homiladorligini bilganlik fakti aniqlangan bo'lishi kerak. Homiladorlik muddati, shuningdek homilador ayol o'ldirilishi natijasida uning homilasi nobud bo'lgan-bo'lmaganligi qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Aybdorning harakatlarini Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini jinoyat sodir etishdan avval anglaganligini aniqlash shart. Agar aybdor jinoiy natijaga erishishni yengillashtirish maqsadi uning o'zi jabrlanuvchini ojiz ahvolga solgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ojiz ahvoldagi shaxs deganda, jabrlanuvchining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy jihatdan o'zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko'rsatishga qodir emaslik yoki o'ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o'z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushuniladi.

Shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan qasddan o'ldirish jinoyati Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda aybdor tomonidan jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlarini o'ldirilganligi albatta ularning o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan sodir etilganligini aniqlash shart. Xizmat burchini bajarish deganda, shaxsning o'z xizmat vazifalari doirasiga kiradigan harakatlarni amalga oshirganligi tushuniladi. Fuqarolik burchini bajarish deganda, har bir fuqaroning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari tomonidan taqdim etilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirishga oid har qanday ijtimoiy foydali va huquqiy faoliyati tushuniladi. Yaqin qarindoshlar

deganda, ota-ona, aka-uka, opa-singil, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukasi va opa-singillari tushuniladi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "d" bandi bo'yicha, ya'ni boshqashaxslarning hayoti uchun xavfli usulda sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdor muayyan shaxsga nisbatan o'ldirish qasдини amalga oshirish chog'ida boshqa shaxslar hayotiga ham chinakam xavf tug'diruvchi usul qo'llayotganligini anglab etganligi aniqlangan bo'lishi lozim.

Ommaviy tartibsizliklar jarayonida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyati Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "e" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar ommaviy tartibsizliklar vaqtida aybdor tomonidan qasddan odam o'ldirishdan tashqari qirg'in solish, vayron qilish, o't qo'yish va shunga o'xshash boshqa jinoyatlar sodir etilgan bo'lsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksi 244-moddasi bilan qo'shib, jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiya qilinadi. Ommaviy tartibsizlik – bu aholining muayyan bir qismiga ularning hayotiga, sog'lig'iga va mulkiga nisbatan zararlar keltirib chiqaradigan va jamoat xavfsizligini buzuvchi xavfli qilmish bo'lib, u har doim olomonning tartibsiz harakatlaridan iborat bo'ladi.

Odam o'ldirishning o'zi shafqatsizlik hisoblanadi, biroq qilmishni mazkur band bilan kvalifikatsiya qilish uchun odam o'ldirishga nisbatan o'ta shafqatsizlik holatining mavjud bo'lishi talab etiladi. Bu haqda, avvalambor, odam o'ldirishning sodir etish usuli va aybdorning jinoyat sodir etishga bo'lgan ruhiy munosabatining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Shuning uchun qasddan odam o'ldirish jinoyatini Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "j" bandi bilan kvalifikatsiya qilishda aybdorning qasdi o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirishga qaratilgan bo'lganligini aniqlash shart. Bu o'rinda shuni nazarda tutish kerakki, qonun o'ta shafqatsizlik tushunchasini odam o'ldirish usuli bilangina emas, balki aybdor tomonidan o'ta shafqatsizlik namoyon etilganligidan dalolat beruvchi boshqa holatlar bilan ham bog'laydi. Qasddan odam o'ldirishni o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgandeb kvalifikatsiya qilish uchun aybdor tomonidan o'ta shafqatsizlik bilan inson hayotidan mahrum etganlik faktini anglagan holda sodir etganligini aniqlash kerak. Agar qilmishda aybdor tomonidan bunday holat anglanilmagan holda sodir etilganligi aniqlansa, qilmish o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish tariqasida kvalifikatsiya qilinmaydi. Shuningdek, odam o'lganidan so'ng, unga nisbatan o'ta shafqatsizlik bilan harakat qilingan holatlar ham tahlil etilayotgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmaydi[7; 28-29-b].

Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish deganda, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar sodir etish jarayonidajabrlanuvchini hayotdan mahrum etish tushuniladi. Bunda ikkita mustaqil jinoyat sodir etilishini inobatga olib, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "z" bandi hamda ishning muayyan holatlaridan kelib shiqqan holda Jinoyat kodeksi 118 yoki 119-moddalarining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinadi. Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyati sodir etilgandan keyin ushbu jinoyatni yashirish maqsadida jabrlanuvchini qasddan o'ldirish Jinoyat kodeksi 118 yoki 119-moddasida hamda 97-moddasi ikkinshi qismining "o" bandida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning o'zi yoki boshqa shaxslar uchun moddiy naf ko'rish yoki moddiy xarajatlardan qutulish maqsadida qasddan odam o'ldirishi tamagirlik niyatida sodir etilgan jinoyat sifatida Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "i" bandi bilan kvalifikatsiya

qilinadi. Qasddan odam o'ldirish uchun haq va'da qilgan tashkilotchining harakatlari u qaysi sabablarga ko'ra shunday qilganligidan kelib shiqib, Jinoyat kodeksi 28, 97-moddalarining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Milliy yoki irqiy adovat zamirida, ya'ni boshqa millatga, irqqa mansub shaxsga, uning turmush tarziga, madaniyatiga, urf-odatlariga, oila turmushiga nisbatan g'ayirlik yoki nafrat tuyg'ulari bilan yoxud millatlararo, irqqlararo adovat yoki nifoq solish maqsadida qasddan odam o'ldirish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "k" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Milliy yoki irqiy adovat zamirida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish deganda, jabrlanuvchining u yoki bu millatga, irqqa yoki xalqqa mansubligi bois, unga adovat u yoki bu irq, millat yoxud xalqning hayot tarziga, turmush, oilaviy taomili, madaniyati, an'alariga nafrat tufayli o'ldirish tushuniladi. [8; 27-28-b]

Bezorilik oqibatida, ya'ni jamiyatga va umume'tirof etilgan axloq qoidalariga hurmatsizlik zamirida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "l" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda aybdorning fe'l-atvorida jamoat tartibiga oshkora bo'ysunmaslik, atrofdagilarga nisbatan o'zini qarshi qo'yish, bepisandlik namoyish etish istagi mavjud bo'ladi. Bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirish jinoyatini o'zaro janjal yoki urush oqibatida sodir etilgan qasddan odam o'ldirishdan farqlash uchun urush-janjal tashabbuskori kim ekanligini, nizo odam o'ldirishda bahona sifatida foydalanish maqsadida aybdor tomonidan ataylab uyushtirilgan uyushtirilmaganligini aniqlash lozim. Agar urush-janjal jabrlanuvchi tomonidan boshlangan bo'lsa yoki nizoga uning g'ayrihuquqiy xulq-atvori sabab bo'lgan bo'lsa, aybdor bezorilik oqibatida odam o'ldirish jinoyati uchun javobgar bo'lmaydi. [9; 106-b]

Diniy taassublar zamirida, jabrlanuvchining diniy e'tiqodi bilan bog'liq holda ko'rinsa, muayyan bir konfessiyaning qadr-qimmatini kamsitish, diniy adovat yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatini Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "m" bandi bilan kvalifikatsiya qilish lozim. Diniy taassublar deganda, diniy fanatizmga asoslangan g'oyalarga ishonish, ularga kundalik hayotda og'ishmay amal qilishda, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar va boshqacha fikrlovchilarga nisbatan murosasizlikda namoyon bo'ladigan xohish-istaklar tushuniladi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "n" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun transplantat olish yoki murdadan olingan qismlardan foydalanishga nisbatan to'g'ri qasd mavjudligini aniqlash zarur. Bunda aybdor ushbu jinoyatdan ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lishi shart emas. Kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida odam o'ldirishni, odamni o'ldirib undagi qandaydir bir a'zoni kesib olish va boshqa bemorga, ilmiy yoki murdaning a'zolaridan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun ko'chirish tashkil etadi.

Boshqa jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida qasddan odam o'ldirish jinoyati Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "o" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish bir-biridan mazkur qilmishlarning mazmuniga ko'ra farq qiladi. Odatda aybdor sodir etilgan jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida odamni o'ldiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rlenumining mazkur jinoyatga oid qarorida ta'kidlanishicha, qasddan odam o'ldirish jinoyati Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "o" bandi bilan kvalifikatsiya qilinganda, aybdorning harakatlarini mazkur modda ikkinchi qismining boshqa

maqsad va sabablarni nazarda tutuvchi yana biror-bir bandi bilan kvalifikatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi. [6; 193-b]

Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qasddan odam o'ldirish Jinoyatkodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "p" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda har qaysi ishtirokchining jinoyatda ishtirok etganlik darajasi va xususiyatini aniqlash, oldindan til biriktiruv bo'lgan-bo'lmaganligini va ular o'rtasida vazifalar o'zaro taqsimlangan-taqsimlanmaganligini sinchiklab tekshirish lozim. Qasddan odam o'ldirish ishtirokchilikda sodir etilganda, jinoyat sub'ektini tavsiflovchi kvalifikatsiya belgilari faqat ushbu belgilar bevosita taaluqli bo'lgan ishtirokshilarning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinishi lozim.

Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirgan aybdorning harakatlari, basharti bu jinoyat yagona qasd bilan sodir etilmagan va odatda turli vaqtda sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "r" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda qasddan odam o'ldirish jinoyatini takroran deb baholash uchun qasddan odam o'ldirish jinoyatining turli vaqtda, shuningdek mazkur jinoyatning kamida ikki marta sodir etilganligi va ushbu jinoyat uchun sudlanmagan bo'lishi hamda ushbu jinoyat uchun javobgarlikka tortish muddatlari o'tmagan bo'lishi lozim[7; 146-147-b].

Qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilgunga qadar qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan o'ta xavfli retsdivist deb topilgan shaxslarning harakatlari, agar uning o'ta xavfli retsdivist deb torilganlik holati qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmagan bo'lsa, Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "s" bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Insonning yashash huquqi turli xalqaro aktlar bilan mustahkamlangan, masalan, 1966 yil 16 dekabrda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro rakt, 1950 yil 4 noyabrda "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida mustahkamlangan.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati zo'ravonlik shakli sifatida qadimgi, hatto tarixdan oldingi davrlardan "o'sib boradi", lekin jamiyat rivojlanishining ma'lum bir davri uchun doimo zamonaviy sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Darhaqiqat, qadim zamonlardan beri qotillik shaxsga qarshi jinoyat hisoblanib, ham axloq, ham qonun kuchiga ega bo'lgan norma va qoidalar tizimi tomonidan qoralangan. O'ldirishni taqiqlash minglab yillar davomida insoniyat madaniyatidagi birinchi vazifalaridan biri edi. Bu ko'p jihatdan jamiyatni nasl qoldirish va mustahkamlash zarurati bilan bog'liq edi. Qotilliklar insoniyatni yo'q qilish bilan tahdid qilgan, shuning uchun ular dastlab mahalliy jamoalarda - urug'lar, qabilalar va boshqalarda taqiqlangan, keyin esa yirik inson jamoalari tashkil etilgach, davlat birlashmalarigacha qotillik taqiqi hamma uchun majburiy bo'lgan qonun shaklini oldi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismi hayotga qarshi jinoyatlar bilan boshlanishi bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi shaxs va fuqaroning shaxsiyatini himoya qilishning ustuvor vazifasini tan olgan holda, inson hayotini himoya qilishga insonning o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham eng katta qadriyat sifatida katta ahamiyat beradi. Hayotning yo'qotilishini qoralash mumkin emas, bu oqibat qaytmas va qaytarilmasdir.

Xulosa. O'ldirish iborasi qanday jonzotga nisbatan qo'llanilmasin uning hayotidan mahrum etilishini anglatadi. Jinoyat qonunida bunday ibora odamga nisbatan qo'llanilgan. Bu

esa odamning hayotdan mahrum etishni anglatadi. Ammo huquqni qo'llash amaliyotida ayrim hollarda ushbu tushunchaning aniq chegaralarini belgilashda muxtojlik seziladi.

Xulosa qilib aytganda qasddan odam o'ldirishning huquqiy shaklini shaxs daxlsizligini ta'minlovchi huquqiy munosabatlar tashkil etadi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining ob'ekti sifatida ko'rsatilgan belgilari to'liq hajmda ushbu jinoyat tarkibi bilan qamrab olinadi. Har qanday sharoitda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan shaxs hayotiga tajavvuz qilish hollari mavjud ekanligi va u huquqqa xilof ravishda amalga oshirilganligini aniqlash shart. Aks holda bu holatlar aniqlanmasa qilmishda Jinoyat kodeksining 97-moddasida nazarda turilgan jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lmaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil 10 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 217A Rezolyutsiyasida qabul qilingan va e'lon qilingan; O'zbekiston Respublikasi mazkur deklaratsiyaga 1991 yil 30 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining №33b-XII qarori asosida qo'shilgan).
3. 1996 yil 16 dekabrda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasi 2200 A (XXI) Rezolyusiyasida qabul qilingan).
4. SH.T.Ikromov. R.Qobulov. A.A.Otajonov, M.M.Qalandarov, D.YU.Rayziev. Jinoyat huquqi maxsus qism Toshkent-2016 yil [45-46 b].
5. Jinoyat huquqi darslik. Maxsus qism. M.X.Rustambaev. Toshkent -2003. O'qituvchi nashriyoti 21-b
6. O'zbekiston Respublikasi oliy sudi plenumining 2004 yil 24 sentyabrdagi «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 13-sonli qarori //O'zbekiston Respublikasi oliy sudi plenumi qarorlari to'rlami. - 1991 – 200b, 2-jild. - T.: «O'qituvchi», 2007. – [192-b].
7. M.X.Rustambaev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent – 2021 yil [28-29 b].
8. Antonyan Yu.M. Qotillik psixologiyasi. M., 1997. B.8; Lokk R.V. Shartnoma asosida qotillik (kriminologik tahlil). M., 2003 yil..[27-28 b].
9. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. / Mas'ul muharrir: yurid. fan.d-ri. prof. M.H.Rustamboev. – T., 2008. [106-b]
10. Kuznetsova N.F. Проблемы криминологической детерминации. – М., 1984.
11. Malein N.S. Правонарушения: понятие, прчины, ответственность – М., 1985.
12. Kriminologiya: Darslik. / Z.S.Zaripov, A.S.Yakubov, G.A.Avenesov va boshq./ prof. Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida. – T., 2006.



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).